

TO‘QIMALARNING KIRISHISHI VA BO‘YOQ MUSTAHKAMLIGINING O‘ZGARISHIGA TURLI TOLA TARKIBLI VA IKKILAMCHI MATERIAL RESURSLARINING TA’SIRI

Atanafasov Muhiddin Rahmonovich

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Yodgorova Hilola Isroilovna

Jizzax politexnika instituti

Ochilov To‘lqin Ashurovich

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Ismoilov Doniyorbek Abdulxamidovich

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada arqoq ipi uchun turli tarkibli tola va ikkilamchi material resurslari aralashmasidan olingan sarja o‘rilishida to‘qimalar ishlab chiqarildi va ularning kirishishi va bo‘yoq mustahkamligi aniqlandi.

***Kalit so‘zlari:** kam chiqindili yangi texnologiyalar, maishiy ikkilamchi material resurslari, to‘qimalarning kirishishi, manfiy kirishish, majburiy-kirishish, to‘qimalarning bo‘yoq mustahkamligi.*

ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНОГО СОДЕРЖАНИЯ ВОЛОКНА И ВТОРИЧНЫХ МАТЕРИАЛЬНЫХ РЕСУРСОВ НА УСАДКИ ТКАНИ И ИЗМЕНЕНИЕ ПРОЧНОСТИ КРАСИТЕЛЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье были изготовлены переплетения для кордной пряжи из смеси волокон различного состава и вторичных материальных ресурсов, а также определены их введение и прочность красителя.

***Ключевые слова:** новые малоотходные технологии, бытовые вторичные материальные ресурсы, ввод тканей, отрицательный ввод, обязательный ввод, стойкость красителя для тканей*

THE EFFECT OF DIFFERENT FIBER CONTENT AND SECONDARY MATERIAL RESOURCES ON FABRIC PENETRATION AND DYE STRENGTH CHANGES

ABSTRACT

In this paper, sorghum weaves obtained from a mixture of fiber and secondary material resources of different compositions for jute yarn were produced and their penetration and dye fastness were determined.

Key words: *new low-waste new technologies, household secondary material resources, tissue insertion, tissue penetration, negative penetration, forced-penetration, tissue dye fastness.*

KIRISH

Jahonda to'quv-trikotaj sanoatidan chiqadigan ikkilamchi material resurslari umumiy xomashyoning 25% ni tashkil etadi. Hozirgi kunda jahonda ilmiy-texnik tarqqiyotning rivojlanishi, mahsulot assortimentlarini ortib ketishi natijasida ikkilamchi material resurslarining miqdori tobora ortib bormoqda. Natijada, bu ikkilamchi material resurslari chiqindilarga chiqarib tashlash natijasida atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelmoqda. Buning uchun, ikkilamchi material resurslaridan samarali foydalanish asosida ularni qayta ishlashda kam chiqindili yangi texnologiyalarni yaratish hisobiga tannarxi past bo'lgan sifatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hozirgi kunda muhim ahamiyatga egadir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahonda aholining turmush darajasining oshishiga qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar hisobiga yalpi mahsulotning eksponensial oshishi hisobiga erishiladi. Ularning atigi 2%i iste'molga tayyor mahsulot ko'rinishida foydalaniladi, qolgan 98%i chiqindilar va chiqindilar ko'rinishida atrof-muhitni ifloslantiradi. Shu sababli, qayta tiklanmaydigan resurslar iste'molini va atrof-muhitning ifloslanishi-ni kamaytirish uchun shoshilinch va keskin choralar ko'rish kerak. Bu boradagi eng muhim yo'nalish ishlab chiqarish ikkilamchi material resurslaridan qayta foydalanish bo'lib, bu tabiiy resurslardan foydalanishni va natijada atrof-muhitning ifloslanishini sezilarli darajada kamaytiradigan tayyor mahsulot olishdir. Ikkilamchi material resurslarni qayta

ishlashga sarflanadigan ish va energiya miqdori birlamchi ishlab chiqarishga qaraganda 2-3 baravar kam bo'lganligi sababli, yengil sanoatning zamonaviy texnologik jihozlaridan foydalanish jarayonida atmosferaga zararli moddalarning chiqarilishini minimal darajaga tushiradi va ularning bir qismi ishlab chiqarish chiqindilarini to'liq qayta tiklaydi. ar juda qimmat bo'lib, ekologik muammolarni tubdan hal qila olmaydi [2].

Hozirgi kunda barcha yengil sanoat korxonalarida to'qimachilik chiqindilari hosil bo'lmoqda. Bunday chiqindilar juda ko'p miqdorda hosil bo'lib, tayyorlov va qayta ishlash korxonalari tomonidan qabul qilinmaydi, balki utilizatsiyaga olib chiqiladi, bu esa mamlakatning ekologik holatini yomonlashtiradi. Shu sababli, to'qimachilik chiqindilaridan samarali foydalangan holda texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishdan iborat muhim ilmiy-texnik muammo paydo bo'ladi [3].

To'qimalarni yuvganda, ho'llanganda, ho'llab dazmollanganda, nisbiy namligi katta bo'lgan havoda saqlanganda o'lchovlari o'zgaradi. Ana shunday o'lchovlarning o'zgarishi to'qimalarning kirishishi bo'lib, bu jarayonda ko'pincha to'qimalarning o'lchovlari kichrayadi [4].

To'qimalarning yana bir ko'rsatkichlaridan biri hozirgi paytda muammo bo'lib turgan asosiy ko'rsatkichlaridan biri matodagi bo'yoq mustahkamligi va ularni yuvgandagi kirishishidir.

To'qimalarni ishlatish jarayonida ularning dastlabki bo'yalgan rangi ko'p vaqt davomida aynimasligi lozim. Bo'yoq mustahkamligiga ko'ra zig'ir tolali matolar mustahkam bo'yalgan va maxsus mustahkam bo'yalgan guruhlarga bo'linadi. Qolgan matolar oddiy, mustahkam va maxsus mustahkam bo'yalgan guruhlarga bo'linadi [5].

To'qimalarning nimaga ishlatilishiga qarab ularning bo'yog'i turli fizik-kimyoviy ta'sirlarga: yorug'lik va ob-havo, quruq va ho'l holatda ishqalanishga, distillangan va dengizdagi suv, sovun va soda eritmalari, yuvish va dazmollash, ter va hokazolarga chidamliligi aniqlanadi [6].

NATIJARAR

Ikkilamchi material resurslar miqdori turlicha bo'lgan to'qimalarning sovun bilan ishlov berishdagi bo'yoq mustahkamligi, kirishishi va bo'yoq mustahkamligining o'zgarishi tadqiq etildi va olingan sinov natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

To'qimalarning kirishishi va bo'yoq mustahkamligining o'zgarishiga tola va ikkilamchi material resurslarning ta'siri

t/r	To'qimaning tola tarkibi	Sovun bilan ishlov berishdagi bo'yoq mustahkamligi, ball	Kirishishi, %		Bo'yoq mustahkamligi, ball	
			tanda bo'yicha	arqoq bo'yicha	quruq	ho'l
1.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolasidan bilan 27,0% viskoza tolasidan+6,6% nitron tolali ikkilamchi material resurslari	5/5/5	-1,5	-0,5	4	3
2.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolasidan bilan 27,0% lavsan tolasidan+6,6% nitron tolali ikkilamchi material resurslari	5/5/5	-	+1,0	3	4
3.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolasidan bilan 27,0% nitron tolasidan+6,6% paxta tolali ikkilamchi material resurslari	5/4,5/4	-	-1,5	4	4
4.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolasidan bilan 27,0% lavsan tolasidan+6,6% viskoza tolali ikkilamchi material resurslari	5/5/5	-1,5	-1,5	4	4
5.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolasidan bilan 27,0% viskoza tolasidan+6,6% lavsan tolali ikkilamchi material resurslari	5/4/4,5	-1,5	-1,5	3	3
6.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolasidan bilan 27,0% paxta tolasidan+6,6% viskoza tolali ikkilamchi material resurslari	5/5/5	-	+1,5	4	3

XULOSA

To‘qimalarning fizik xossalarini tahlil qilishda tanda ipi 100% paxta tolasidan arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolasi bilan 27,0% lavsan tolasi+6,6% nitron tolali ikkilamchi material resurslari aralashmasidan olingan va tanda ipi 100% paxta tolasidan arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolasi bilan 27,0% lavsan tolasi+6,6% viskoza tolali ikkilamchi material resurslari aralashmasidan olingan to‘qimalarning sovun bilan ishlov berishdagi bo‘yoq mustahkamligi hamda quruq va ho‘l holatdagi bo‘yoq mustahkamligi boshqa to‘qimaning ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

REFERENCES

1. Atanafasov M.R., Ochilov T.A., Usmonova Sh.A., Yuldashyev J.N., Hakimov Sh.H. Influence of Cotton Fiber of Different Composition and Secondary Material Resources on Single-Cycle Elongation Deformation of Yarns // International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology – India, Volume 11, Issue 2, February 2022. pp.1135-1137.
2. Atanafasov Muhiddin Rakhmonovich “Iplarning sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi” Innovative Development in Educational Activities, ISSN: 2181-3523 Volume 2, Issue 4, 2023
3. Atanafasov Muhiddin Rakhmonovich, Ochilov To‘lqin Ashurovich, Rahimjonov Husanboy Rahimjonovich “Turli tarkibli va qayta ishlangan tolalar aralashmasidan olingan piltaning notekislik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi” Innovative Development in Educational Activities, Volume 2, Issue 4, ISSN: 2181-3523, 2023
4. T.A.Ochilov, D.M.Isaeva, N.A.Niyazova, Sh.P.Shumkarova, T.G‘. Bobomurodov. Changes in Technological Performance of Lastic Knitted Textiles in Different Range. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 7, Issue 9 , September 2020. P. 14846.
5. M.R.Atanafasov, T.A.Ochilov, R.X.Norboev, M.A.Mansurova, D.A.Khalmatov. Changes in the Uneven Indexes of Sliver and Threads by Different Technological Processes. International Journal of Recent Technology and Engineering, Volume-9 Issue-1, May 2020. P.2809.
6. T.A.Ochilov, B.B.Akhmedov, T.A.Toyirova, Sh.S.Mengnarov, J.T.Xasanov. Influence of Separating Fibrous Seed Mass to Fractions to Quality. International Journal of Recent Technology and Engineering, Volume-9 Issue-1, ay 2020.p.200.